

4. Хужагелдиев Ч.П. (2013) Стимулирование повышения плодородия земли в Узбекистане с учетом мирового опыта. / Ч. П. Хужагелдиев. Текст: непосредственный. // Актуальные вопросы экономических наук: материалы II Междунар. науч. конф. Т.0. Уфа: Лето. С. 104-106. URL: <https://moluch.ru/conf/econ/archive/76/3568/>

5. Фарманов Т.Х. Қишлоқ хўжалигида сувни тежайдиган технологияларни жорий этишни рағбатлантириш. "Аграр соҳани модернизациялаш шароитида бухгалтерия ҳисоби, таҳлил, аудит ва молия-кредит масалалари" мавзусидаги илмий-амалий конференцияси маъруза тезислари тўплами. – Т., 2012. 57-58-б.

6. Баранова О.А., Тусков А.А. Система государственного стимулирования инновационной деятельности в АПК. // Журнал. Современные проблемы науки и образования. – М., 2012. № 6. С. 16.

7. Вострикова С.М. Современные методы стимулирования предприятия внедрения экологически чистых технологий производства. Московский авиационный институт (Национальный исследовательский университет) «МАИ». // Журнал. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – М., 2015. №12-6. С. 50-53.

8. Самоукина Н.В. Стимулирование персонала как проблема. // Журнал. Управление Персоналом. – М., 2004. № 7. С. 12.

9. Рейчел Шеклтон. Стимулирование меняющийся подход. // Журнал. Персонал Микс. – М., 2001. № 5. С. 38.

10. Бабаджанов А. Аграр соҳа илмий муассасаларини рағбатлантириш. // "Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги" журнали. – Т., 2010. № 2. 24-б.



### MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINI TADQIQ QILISHDAGI YONDASHUVLAR

*Ruzmetova Gulira'no Atabekovna*  
Urganch davlat universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

 [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss6/a51](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a51)

**Аннотация.** Inson kapitali butun dunyo taraqqiyoti bilan bir vaqtda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlab, raqamli inqilob paydo bo'lishining asosiy sababiga aylandi. Endi xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun iqtisodiy jihatdan rivojlanmoqchi bo'lgan har bir davlat inson resurslariga e'tiborni kuchaytirishi kerak. Mahalliy va xorijiy olimlar inson kapitalini tadqiq etish masalalariga katta e'tibor berishadi. Shunga asosanib, maqolada inson kapitalini tadqiq qilishning nazariy yondashuvlari va tendensiyalari tahlil qilinadi.

**Калит со'злар:** mintaqa, iqtisodiyot, mintaqaviy iqtisodiyot, inson kapitali, intellektual, aktivlar, iqtisodiy farovonlik.

### ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

*Рузметова Гулирано Атабековна*  
независимый исследователь  
Ургенчского государственного университета

**Аннотация.** Человеческий капитал стал основной причиной возникновения цифровой революции, обеспечив интеграцию науки, образования и производства в то же время, когда проходит период развития всего мира. Теперь каждая страна, которая хочет развиваться экономически, чтобы обеспечить конкурентоспособность на международной арене, должна уделять больше внимания человеческим ресурсам. Местные и зарубежные ученые уделяют большое внимание вопросам исследования человеческого капитала. На основе этого в статье проанализированы теоретические подходы и тенденции исследования человеческого капитала.

**Ключевые слова:** регион, экономика, региональная экономика, человеческий капитал, интеллектуальный, активы, экономическое благополучие.

## APPROACHES TO STUDYING HUMAN CAPITAL IN THE DEVELOPMENT OF REGIONAL ECONOMY

**Ruzmetova Gulirano Atabekovna***Independent researcher of Urgench State University*

**Annotation.** Human capital has become the main reason for the emergence of the digital revolution, ensuring the integration of science, education and production at the same time as the development of the entire world. Now every country that wants to develop economically to ensure competitiveness in the international arena must pay more attention to human resources. Local and foreign scientists pay great attention to issues of human capital research. Based on this, the article analyzes theoretical approaches and trends in human capital research.

**Key words:** region, economy, regional economy, human capital, intellectual, assets, economic well-being.

**Kirish.** Maqroiqtisodiy darajada inson kapitali mintaqaning, mamlakatning ta'lim, kadrlar tayyorlash va malaka darajasiga, sog'liqni saqlash va hokazolarga qo'shgan hissasini o'z ichiga olib, bu daraja mintaqa yoki mamlakat butun aholisining umumiy inson kapitalidan iborat. Inson kapitalini rivojlantirish – bir kunlik ish emas. Mazkur missiya kompleks yondashuv hamda uzoq muddatli, muhim, aniq yo'naltirilgan choratadbirlarni talab qiladi. Bugungi globallashuv sharoitida raqobatlashish – okeanda qayiqsiz suzishdek gap. Cho'kib ketmaslik uchun kuch, shiddat va mahorat talab qilinadi.

Global milliy boylik tarkibini tadqiq qilish davomida Lange, Glenn va boshqa tadqiqotchilar "141 ta mamlakat misolida inson kapitalining global milliy boylikning umumiy qiymatidagi ulushi 64 %ni tashkil qilishi va so'nggi 20 yil davomida inson kapitali hajmi 55 %ga o'sgani ma'lum bo'lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 %ni tashkil etgan bo'lsa, quyi daromadli davlatlarda inson kapitali hissasi 41 %ni tashkil qiladi"[1]. Mamlakat iqtisodiyotining jahon bozorida raqobatbardoshligi, aholining turmush farovonligi inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda, xususan, "mamlakatlar o'rtasidagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30 %i aynan inson kapitali bilan izohlanishi" [2] ma'lum bo'lmoqda. Dunyo aholisining 98 %i istiqomat qiluvchi 174 ta mamlakatda Jahon banki tomonidan 2020-yilda o'tkazilgan dunyo davlatlarining inson kapitali indeksida O'zbekiston ilk marotaba qatnashdi va 62 % natija ko'rsatdi. Ya'ni O'zbekiston MDH mamlakatlari ichida Belarus Respublikasi (70 %), Rossiya (68 %) va Qozog'iston (63 %)dan keyingi o'rinda joylashgan [3].

O'zbekistonda milliy boylik tarkibida inson kapitali ko'rsatkichining ulushi 62 %ni tashkil qilgani holda, Jahon banki mutaxassislarining fikriga ko'ra, dunyo mamlakatlari bo'yicha milliy

boylik tarkibida jismoniy kapitalning ulushi o'rtacha 16 %ni, tabiiy kapital 20 %ni, inson kapitali 64 %ni tashkil etadi (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya singari taraqqiy etgan mamlakatlarda milliy boylik tarkibida inson kapitali ulushi 80 %ga yetadi).

Butun dunyoda taraqqiyot davri kechayotgan bir paytda ilm-fan rivojining yuksalishi, innovatsion g'oya va fikrlarning vujudga kelish taraqqiyoti fan, ta'lim va ishlab chiqarishda integratsiyani ta'minlash orqali raqamli inqilobning vujudga kelishiga asosiy sabab bo'ldi. Endilikda iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishni istagan har qanday mamlakat xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida inson resurslariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishi asosiy masalaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida: "...inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir. Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'limni kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz va mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'pladi, ya'ni ta'lim tizimi tubdan o'zgardi", – deb ta'kidlab o'tdi. Darhaqiqat, o'tgan 6 yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 %dan 70 %ga, oliy ta'limda esa 9 %dan 38 %ga yetdi [4].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XX asrning 50-60-yillarida Chikago maktabi namoyandalari Inson kapitali nazariyasiga mustaqil nazariya sifatida qaray boshladilar, shuningdek, inson kapitali shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari T.Shuls, G.Bekker, Bouen, M.Blaug, J.Mincer, S.Polachek ishlarida tadqiq etildi va yanada rivojlantirildi.

Inson kapitali asoschilari, klassik nazariyachilar G.Bekker va T.Shuls hisoblanadi. T.Shuls o'zining ilmiy izlanishlarida inson kapitalini ishlab chiqarish salohiyati kapitalning boshqa shakl-

lari rentabelligidan ustun bo'lgan aktiv sifatida aniqlagan. Ushbu aktiv inson hayoti davomida investitsiyalar yordamida yaxshilanishi mumkin bo'lgan qimmatli bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida shakllanadi. T.Shuls investitsiyalar shakliga qarab quyidagi kapital turlarini aniqladi [5]:

- maktab ta'limi;
- ish joyida o'qitish;
- sog'liqni saqlash;
- iqtisodiyot sohalarida o'sib borayotgan bilimlar zaxirasi.

G.Bekker o'zining ilmiy qarashlarida inson kapitali orqali insonning bilimlari, ko'nikmalari va motivatsiyasining bir butunligini tushuntirib o'tgan[6]. Shu tariqa har ikki olim ham inson kapitalini mehnat bozorida sotish mumkin, degan fikrga qo'shilmoqda. Ushbu turdagi kapitalning to'planishi katta miqdordagi xarajatlar bilan murakkab investitsiya jarayoni bilan birga keladi. Boshqa har qanday kapital kabi u ham shunga o'xshash xususiyatlarga ega:

- uzoq muddat foydalaniladigan ne'mat hisoblanadi;
- joriy xarajatlar bilan bog'liq xususiyati;
- to'liq jismoniy eskirish boshlangungacha foydali xususiyatlarini yo'qotadi.

G.Bekker inson kapitali nazariyasida individual va ijtimoiy tavsifga ega bo'lgan ichki qaytim normasi tushunchasini kiritdi. Birinchisi, investitsiyalarni aniq investorlar nuqtayi nazaridan kiritishni tavsiflaydi, ikkinchisi butun jamiyat nuqtayi nazaridan ularning samaradorligini baholaydi. Shunday ekan, qaytim normasi, o'z navbatida, ta'limning har xil turlari va darajalari o'rtasida va butun iqtisodiyot ham uning har xil sektorlaridagi ta'lim tizimi o'rtasidagi investitsiyalarni taqsimlash regulatori sifatida namoyon bo'ladi. T.Shulsning asarlaridagi singari G.Bekkerning asarlarida ham inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar jismoniy kapitalga qo'yilmalarga nisbatan sezilarli darajada oshishi ta'kidlangan. Amerikalik iqtisodchi L.Turov [7] tadqiqotlarida inson kapitali unumdorlik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqdi. Olim inson kapitalini odamlarning tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyati sifatida belgilaydi. Bu nafaqat shaxsga yo'naltirilgan alohida ishlab chiqarish sarmoyasi, balki boshqa sarmoyalarning samaradorligiga ham ta'sir qiladi [1]. P.Romer [8] ham ushbu yondashuv tarafdori bo'lib, inson kapitalini iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy manbai sifatida talqin etadi. U yangi bilimlarning manbai - «inson kapitali» ekanligini ta'kidlaydi. Y.Dolan o'z qarashlarida inson kapitalini ta'lim jarayonida va amaliy tajri-

balar vositasida o'zlashtirilgan insonning aqliy qobiliyati sifatida e'tirof etadi [9].

R.Krouford [10] yondashuvi asosida inson kapitali nazariyasi uning o'ziga xos xususiyatlari va jihatlarni aniqlash nuqtayi nazaridan kengaytiriladi. Unga quyidagilar tegishlidir: kengayish, o'z-o'zini rivojlantirish, portativlik va uyushganlikda foydalanish. Ularning namoyon bo'lishi inson kapitalining mazmunan transformatsiyalashish imkonini beradi. Inson kapitalini kengaytirish, o'z-o'zini rivojlantirish uning hajmini oshirish, portativlik va birgalikda foydalanish esa uni amalga oshirish doirasini kengaytirishi mumkin.

Inson kapitalining iqtisodiy o'sish sifatiga ta'sirini zamonaviy yondashgan va innovatsion faoliyat ko'lamidan o'sib boruvchi samaradorlikni hisobga olgan holda o'zida endogen iqtisodiy o'sish nazariyalarini mujassamlashtirgan Agiyonning [10] tadqiqotlari muhim o'rin egalladi. Innovatsion investitsiyalar va ularning iqtisodiy o'sish sifatiga ta'siri inson kapitalidagi muammolarini tadqiq etishga katta hissa qo'shgan olimlar qatorida Nuriyev, Notkin [11] kabi olimlarni sanab o'tishimiz mumkin. Shuningdek, o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ham mazkur muammolarning turli jihatlarni tadqiq qilishi alohida ahamiyatlidir. Jumladan, akademik R.A.Abudrahmonov va R.A.Ubaydullayeva [12] inson kapitalining turli muammoli jihatlarni yechimlar bilan tadqiq qilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada, asosan, tadqiqot usuli ilmiy ish doirasida qo'llaniladigan adabiyotlarni o'rganish bo'lib, inson kapitalining tushunchalari, ta'riflari va o'lchov modellarini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda tizimli adabiyotlar va sifat kontent tahlili o'tkazildi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Inson kapitali ish beruvchilar va umuman, iqtisodiyot uchun iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki u samaradorlik va rentabellikni oshiradi. Asosiy foydaning o'sishi ta'lim va individual ta'limga investitsiyalardir. Ammo shuni esda tutishimiz kerakki, inson kapitali uzoq muddatli ishsizlik, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni qabul qilmaslik tufayli qadrsizlanishi mumkin. Inson kapitali mintaq va butun mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi [13]. Mamlakatimiz va uning aksariyat mintaqalarining iqtisodiy siyosati inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirishga qaratilgandir. Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat ham mintaqaning, ham butun mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar asnosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi


PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”[14]gi farmonidan 52-maqсад sifatida: “Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo’yicha O’zbekiston pozitsiyasini yaxshilash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo’nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo’llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish” belgilab berilishi innovatsion iqtisodiyotning qaror topishi masalasi milliy iqtisodiyot uchun muhimligini bildiradi.

Fikrimizcha, bugungi zamonaviy va texnologiyalar tarraqqiy etgan globalizm davrida inson kapitali milliy iqtisodiyot taraqqiyotida innovatsion jarayonlarni tadbiiq etishning asosiy omilidir. Albatta, bugungi raqamli dunyoda yashayotgan ekanmiz, inson kapitali – raqamli sivilizatsiyani rivojlantirishda asosiy omil bo’lib xizmat qiladi, shuningdek, ijtimoiy-texnologik infratuzilmalarning faollashuviga olib keladi. Bu esa bevosita milliy iqtisodiyotning, shuningdek, jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanishini ta’minlashga olib keladi [15]. Inson kapitali aholi salohiyatini tavsiflaydi va inson kapitalining takomillashuvi tobora inson salohiyatining oshishiga olib keladi (1-rasm).

Edvinson, Styuart va Sueby [16] intellektual kapitalni ikki elementga ajratadi: inson kapitali

va tarkibiy kapital. Bulardan eng muhimi inson kapitali aktiv kompaniyaning raqobatdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. “Kompaniyadagi boshqa ishlab chiqarish omillariga nisbatan inson kapitalining afzalliklari shundaki, u raqobat strategiyasidagi innovatsiyalar, tadbirkorlik qobiliyati, noyob sifat, maxsus tajriba, tabaqalashitirilgan xizmat va rivojlanish qobiliyati, kerak bo’lganda, hosildorlikni ham o’z ichiga oladi”, – deydi L.Mazis, Robert va H.Jekson [17].

Inson kapitaling roli intellektual boylik yaratishda strategik ahamiyatga ega, chunki faqat inson kapitali bilim yaratishi va unga egalik qilishi mumkin. Intellektual aktivlar ortishi natijasida aholi sifati va saviyasining ortib borishi bevosita inson salohiyatining oshishi bilan belgilanadi. Aholi sifati oshirishga, intellektual faoliyatga, jumladan, ta’lim-tarbiya, sog’liqni saqlash, fan (bilim), madaniyat va san’at, shuningdek, boshqa komponentlarga ishbilarmonlik muhitini kengaytirish, axborot bilan ta’minlanganlik, tadbirkorlik qobiliyati va iqtisodiy erkinlikni kengaytirishga investitsiyalar jalb qilish orqali inson kapitali ushbu komponentlarga o’z ta’sirini o’tkazadi. Asosan, inson kapitaliga investitsiyalarni jalb qilishda davlat yetakchi o’rinda hisoblanib, bu davlatning iqtisodiyot nuqtayi nazaridan eng muhim vazifalaridan biridir.



1-rasm. Inson salohiyatida inson kapitalining o’rni

Ak

Bu yerda yana bir atama borki, ijtimoiy kapital, bu inson kapitali bilan chambarchas bog’liq bo’lgan, insonlarga o’z xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi ijtimoiy tuzilmalarda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar bo’lib, ya’ni inson kapitali shaxs egalik qiluvchi bilim va ko’nikma, shuningdek, tajribalarning umumiy-

ligini ifoda etadigan bo’lsa, ijtimoiy kapital inson egalik qilayotgan intellektual aktivlardan insonlarning birgalikdagi faoliyatida foydalanishni aks ettiradi. Shuni ta’kidlash lozimki, qo’shilgan qiymat yaratish yoki hayot sifatini yaxshilash jarayonida foydalanilmaydigan yuqori sifatli inson resurslarini inson kapitali sifatida baholab bo’lmay-

di. Quyidagi 1-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, "inson kapitali"ni ta'riflash borasida umumiy bir yondashuvlar mujassamlashtirilmagan.

S.Kamilova[10] o'zining tadqiqotlarida "inson kapitali"ning nazariy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib o'tgan. Biz shu tahlil ma'lumotlariga asoslangan holda bosqichlarni ko'rib chiqamiz.

1-jadval

**Inson kapitali va ijtimoiy kapital tushunchalarining ta'rifi [24]**

Tashkilotlar nomi	Inson kapitali	Ijtimoiy kapital
Jahon banki	Xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda talab qilinuvchi va muayyan bir shaxs tomonidan egallangan bilim, malaka, ko'nikma va shu kabi sifatlarning yig'indisi	Belgilangan maqsadlarga erishish borasida insonlarga o'z xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi ijtimoiy tuzilmalarda qaror topgan me'yor va ijtimoiy munosabatlar
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti	Inson tomonidan egallangan va uning mehnat samaradorligini oshirishga imkon beruvchi bilim, malaka va ko'nikmalarning yaxlitligi. Inson kapitalini ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik kabilarga sarmoya kiritish orqali ko'paytirish va sifatini yaxshilash mumkin	Jamoaviy xatti-harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi o'zaro aloqalar, urf-odatlar va institutlarni o'z ichiga oladi
Yevropa Ittifoqining ijtimoiy o'lchovlar va bandlik bo'yicha oliy darajadagi guruhi	Shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy farovonlikka imkon beruvchi shaxsga tegishli bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar	Umumiy maqsadlarga erishish uchun guruh ichida yoki guruhlar o'rtasida o'zaro hamkorlikka zamin yaratuvchi o'zga shaxslarning qadriyatlarini, urf-odatlarini, axloqiy me'yorlarini hurmat qilgan holda ijtimoiy hayotda ishtirok etish (European Council, 2003)
Stokgolmdagi Qirollik texnologik instituti tadqiqotchilari KTH	-	Ijtimoiy tarmoqlar orqali yaratiluvchi, to'planuvchi va uzatiluvchi munosabatlar, me'yorlar va qoidalarning jamlanmasi (Westlund, Gawell, 2012. P.104)

*Manba:* muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Fikrimizcha, inson kapitali nazariyasi so'ngi yillardagi tadqiqotlar orasida jadallik bilan rivojlanayotgan tadqiqot sohalaridan biri sanaladi. Bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy izlanish-

larning tahlili inson kapitaliga nazariy qarashlar va qoidalar shakllanishining uchta bosqichini farqlash imkonini yaratadi. Buni quyidagi 2-jadvalda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

**"Inson kapitali" nazariyasining bosqichlari**

Birinchi bosqich	1960-yillarning boshlari	"Inson kapitali" tushunchasining paydo bo'lishi. "Tor" talqin qilinishi
Ikkinchi bosqich	1970-1990-yillar oralig'i	Inson kapitaliga bo'lgan qiziqishning sustlashishi va inson kapitali tuzilmasining murakkablashishi
Uchinchi bosqich	1990-yillardan hozirga qadar (tadrijiy taraqqiyot sifatida)	"Inson kapitali" milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy manbai. "Keng" talqin qilinishi

*Manba:* muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Yuqoridagi jadvalni kengroq talqin qiladigan bo'lsak, birinchi bosqichda "inson kapitali" tushunchasining paydo bo'lishi "tor doirada" – bilim va ko'nikmalarning jamg'arilgan zaxirasi sifatida talqin qilinishi bilan izohlanadi. Mazkur bosqichda inson kapitali tushunchasini tadqiq qilish bilan bog'liq ishlar sirasiga Xekman, Hermanson, Bekker, Garry, Shuls Teodor kabi olimlar inson kapitalining kelgusida yuqoriroq daromad

keltirishga xizmat qiluvchi qobiliyat, bilim va boshqa shaxsiy xususiyatlar zaxirasi sifatida talqin qilinishini tavsiya qiladilar. Inson kapitalining tahlili keyingi yillarda moliyaviy usul va vositalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilgandir. Ikkinchi bosqichda esa, ya'ni 1970-1990-yillarning oralig'ida mazkur inson kapitalini o'rganishga bo'lgan qiziqish susayadi va shu bilan birgalikda, inson kapitali tuzilmasining murakkablashuvi

jadallashishi bilan tavsiflanadi. Bunda aholining mehnat faolligini oshirish, ishchi va xizmatchilarning mehnat shart-sharoitlarini o'zgartirish va yaxshilash, mehnat bozori va undagi mavjud o'zgarishlarga xos ma'lumotlarni izlashga bo'lgan qiziqishning ortishi, shuningdek, sog'liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik va shaxsiy rivojlanishga investitsiyalarning kiritilishi kuchayganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, inson kapitalining individual darajada qobiliyat va ko'nikmalarini amalga oshirishdan olingan daromad, korxonada darajasida esa mahsulot va xizmatlar rentabelligini oshirish, foydani o'stirish kabilarni aks ettiradi. Va nihoyat, **uchinchi bosqichga** nazar soladigan bo'lsak, bu bosqich inson kapitalining tadrijiy taraqqiyoti sifatida 1990-yillarning boshlaridan to hozirgi kunga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. "Inson kapitali" birinchi bosqichdagi "tor" tushunchaning "keng" talqini, ya'ni milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy manbayi sifatida talqin qilinadi. S.A.Dyatlov, E.D.Sso'renova, A.N.Dabronin kabi namoyandalarning fikricha, inson kapitalidan foydalanish shaxs nuqtayi nazaridan baholanganda, u aholi daromadlarining o'sishiga, tashkilot nuqtayi nazaridan baholanganida, korxonada va tashkilotning raqobat ustunliklariga ega bo'lishiga va jamiyat nuqtayi nazaridan baholanganda, inson kapitali jamiyatda jinoyatchilikning pasayishi va aholi bandligi va turmush darajasining oshishiga olib keladi. Aytishimiz mumkinki, XXI asrning boshiga kelib, inson kapitali tushunchasi tarkib va tuzilma jihatidan o'zgarishga uchradi va bunda inson kapitali dastlab sog'liq va ta'lim darajasi, undan keyin kasbiy harakatchanlikdan iborat deb qaralgan bo'lsa, keyinchalik inson kapitali xodimning motivlari, majburiyatlari, xulq-atvor jihatlari bilan boyitildi.

Davrlar kesimida "inson kapitali" tushunchasining o'zgarish darajasini tavsiflashga qaraydigan bo'lsak, bosqichlar davriyligi o'zgarib borishi bilan inson kapitalining tuzilmasi yanada murakkablashib bordi. Shu asnoda inson kapitalining baholash darajasi ham o'zgarishlarga duch keldi: dastavval mavjud moliyaviy jihatlar hisobga olingan ko'rsatkichlar uning nomoddiy jihatlari tavsif qiluvchi ko'rsatkichlar bilan to'ldirildi. Nafaqat inson kapitalining qiymati, balki inson kapitali tomonidan yaratilgan qo'shimcha qiymatni ham o'lchash imkoniyati paydo bo'ldi.

#### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. 20.09.2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalarni umumlashtirganimiz holda xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizdan ilmiy-texnikaviy va innovatsion faoliyatning faol bo'lmayotganligining asosiy sabablari inson kapitaliga yetarlicha e'tibor berilmayotganligidir. Ammo yaqin 4-5 yil ichida O'zbekistonda aynan inson kapitaliga investitsiyalarning yo'naltirilayotganligi ahamiyatlidir. Ortga nazar soladigan bo'lsak, 10 yil avval inson kapitalining barcha tarkibiy qismlari sifati sustlashib qolgan bo'lsa, jumladan: birinchi navbatda ta'lim va fan, shuningdek, tibbiyot, fuqarolar va tadbirkorlik tashkilotida xavfsizligi, biroq so'nggi yillarda Taraqqiyot strategiyasidagi belgilangan vazifalar, birinchi navbatda, innovatsion iqtisodiyot uchun ishonchli poydevor qurish imkoniyatlarini kengaytirib berdi. Mintaqada iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida inson kapitali tushunchasini aniqlashtirish borasidagi tadqiqotlar ilmiy va amaliy jihatdan bugungi kunning zarurati hisoblanadi. Shu borada inson kapitalini o'rganishda mintaqaviy iqtisodiyot, shaxs, investitsiyaviy, iqtisodiy o'sish omili nuqtayi nazaridan yondashishlar aniqlashtirildi.

Inson kapitalini o'rganishda individual va makrodarajadagi yondashish zarurati borligi aniqlandi va inson kapitalini o'rganishga yondashuvlarni umumlashtirish va tizimlashtirish inson kapitalining bilim, qobiliyat va ko'nikmalar zaxirasiga asoslanganligini aniqlashga imkon yaratadi. "Inson kapitali" tushunchasining tadrijiy taraqqiyot davrini tahlil qilish uning davrlar oralig'ida murakkab tabiatga ega bo'lib borishini ko'rsatadi. Inson kapitalini takror ishlab chiqarish bosqichlari sifatida tug'ilish, farzand tarbiyasi, insonning jismoniy va intellektual jihatdan yuksalishi davri, ulg'ayish va kasbiy vakolatlarni shakllantirish va rivojlantirish davri, jamiyatga kirganida ijtimoiy, mehnat va ijodiy faoliyatining pasayish davri kabilarni ajratib ko'rsatganimiz holda, inson kapitalining takror ishlab chiqarish bosqichlari bir-biridan jarayonlarda qatnashuvchi subyektlar, investitsiyalar ko'lami va yo'nalishlari bilan farqlanadi. Zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi bevosita inson kapitaliga bog'liq, shu asnoda mintaqada inson resurslarini rivojlantirish sohasida izchil siyosat va inson kapitaliga muvozanatli investitsiyalar zarur.

3. Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории. Пер. с англ. Сост., науч. ред., послес. Р.И.Капелюшников; предисл. М.И.Левин. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – 672 с.
4. Смирнов В.Т., Сошиников И.В., Романчин В.И., Скоблякова И.В. Человеческий капитал: содержание и виды, оценка и стимулирование. Монография. Под ред. д.э.н., профессора В.Т.Смирнова. – М.: Машиностроение-1, Орел: ОрелГТУ, 2005. – 513 с.
5. Thurow L. Investment in Human Capital. Belmont, 1970. – 104 p.
6. Dolan E.D. Lindsay Market: microeconomic model. – St.-Petersburg, 1992. – 477 p.
7. Lange M.Glenn, Quentin Wodon and Kevin Carey, eds. (2018). The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046-6.
8. World Bank Group. Human Capital: A Project for the World, (2018). October, 13. Development Committee Meeting.
9. World Bank Group. Human Capital: A Project for the World (2020). Human capital in the time of covid-2019.
10. Kamilova S.M. Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar. // "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali. IV son, avgust, 2023. 12-21-bet.
11. Becker G. (1962) Investment In Human Capital. A Theoretical Analysis. // Journal of Political Economy, Vol. 70 (5, Part 2, Supplement). Pp. 9-49.
12. Blaug M. (1976) The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey. // Journal of economic literature, September 1, 14(3), pp. 827-55.
13. Bowen H. (1977) Investment Learning San Francisco. Jossey- Bass. P. 507.
14. Blaug M. The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey. // Journal of economic literature 1976, September 1, 14(3), pp. 827-55.
15. Aghion P., Meghir C. (2004). Growth, distance to frontier and consumption of human capital. The Institute for Fiscal Studies, WP 04/31, 1-50.
16. Ноткин А.И. (1996) Вопросы эффективности и интенсификации общественного производства.
17. Нуриев Р.А. (2000) Теории развития, новые модели экономического роста (вклад человеческого капитала). // Вопросы экономики. № 9. С. 137.
18. Убайдуллаева Р.А. (2017) Институциональные основы и механизмы обеспечения информационной безопасности молодежи. Монография. / Под научной редакцией академика Р.А.Убайдуллаевой. Коллективная монография. – Т.: Iqtisod-moliya. – 220 с.
19. Jones B.F. (2019) The Human Capital Stock: A Generalized Approach: Reply. American Economic Review. Vol. 109. Is. 3. P. 1175-1195. DOI: 10.1257/aer.20181678.
20. Aripov O.A. Inson kapitalining rivojlanishiga doir mulohazalar. // Interpretation and researches International scientific journal volume 1 issue 3.
21. Burr R. & Girardi A. (2002) Intellectual Capital: More Than the Interaction of Competence x Commitment. Australian Journal of Management. <https://doi.org/10.1177/031289620202701s09>
22. Mathis L., Robert & Jackson H.J. (2011) Human Resource Management (edisi 10). Salemba Empat.
23. Barlibayeva F. (2011) Потенциал инновационного развития территории: методика исследования и направления эффективной реализации [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.uecs.ru/logistika/item/384-2011-04-04-09-03-17>
24. Axmedov D.K., Numanov K.F. Теоретические аспекты инновационной модели экономики. // Iqtisodiyot va ta'lim. 2020, № 4. <https://mgimo.ru/upload/iblock/19f/19fe6395e5a15150f715f072dd07a1fa.pdf>



**РИВОЖЛАНИШ СТРАТЕГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА  
МИНТАҚАЛАР ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ КОМПЛЕКС  
ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ**

**Мустафаев Бахтиёр Рустамович**

Тошкент давлат иқтисодиёт университети  
хузуридаги «Ўзбекистон иқтисодиётини

ривожлантиришининг илмий асослари ва муаммолари»  
илмий-тадқиқот маркази мустақил изланувчиси

 [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss6/a52](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a52)

**Аннотация.** Ушбу мақола ривожланиш стратегияларини шакллантириш ва баҳолашни чуқур ўрганиб, уларнинг минтақавий иқтисодиётларнинг барқарор ривожланишига таъсирини таъбир қаратади. Ўзбекистонда ўтказилган амалий тадқиқотлардан олинган маълумотларга асосланиб, таҳлил истиқболли етакчилик, экологик барқарорлик, бандлик ва ялпи ички маҳсулотнинг ўсишини қамраб олади ва минтақавий-иқтисодий ривожланишига яхлит ва мослашувчан ёндашув бўйича тавсиялар тўплами билан яқунланади.

**Калит сўзлар:** ривожланиш стратегияси, барқарор ривожланиш, минтақавий иқтисод, атроф-муҳит барқарорлиги, бандликнинг ўсиши, ЯИМ таъсири.